



SMART TURIZM RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Darmenbayeva Shamengul

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

ORCID: 0009-0006-4925-7271

shamengulsagiyevna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Buxoro viloyatida smart turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Buxoro viloyati, o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, me'morchiligi va sayyohlar uchun jozibali joylari bilan, turizmni raqamlashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Maqola smart turizm konsepsiyasini, ya'ni raqamli texnologiyalarni (mobil ilovalar, IoT, AR/VR, sun'iy intellekt va boshqalar) sayyohlar tajribasini shaxsiylashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, maqola global miqyosda smart turizmning rivojlanish tendensiyalarini o'rganib, Buxoro viloyatida bu texnologiyalarni qanday tatbiq etish mumkinligini ko'rsatib o'tadi. Maqola smart turizmni rivojlantirishda zarur bo'lgan strategiyalarni va amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: smart turizm, Buxoro viloyati, raqamli xizmatlar, tarixiy meros, interaktiv xizmatlar, IoT, AR/VR, mobil ilovalar, turistlar tajribasi, barqaror turizm.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ УМНОГО ТУРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Дарменбаева Шаменгуль

Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. Данная статья анализирует возможности развития умного туризма в Бухарской области. Бухара, с её богатым историко-культурным наследием, архитектурой и привлекательными туристическими местами, обладает большим потенциалом для цифровизации туризма. Статья рассматривает концепцию умного туризма, то есть применение цифровых технологий (мобильные приложения, IoT, AR/VR, искусственный интеллект и другие) для персонализации опыта туристов и улучшения качества обслуживания. Также статья исследует глобальные тенденции развития умного туризма и предоставляет рекомендации о том, как эти технологии могут быть внедрены в Бухарской области. В статье предлагаются стратегии и практические рекомендации для развития умного туризма.

Ключевые слова: умный туризм, Бухарская область, цифровые услуги, историческое наследие, интерактивные услуги, IoT, AR/VR, мобильные приложения, опыт туристов, устойчивый туризм.

SMART TOURISM DEVELOPMENT TRENDS (IN THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION)

Darmenbayeva Shamengul

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract. *This article analyzes the potential for developing smart tourism in Bukhara region. Bukhara, with its rich historical and cultural heritage, architecture, and tourist attractions, holds great potential for digitalizing tourism. The article examines the concept of smart tourism, focusing on how digital technologies (mobile apps, IoT, AR/VR, artificial intelligence, etc.) can be applied to personalize tourist experiences and improve service quality. Furthermore, the article explores global trends in smart tourism development and outlines how these technologies can be implemented in Bukhara region. It also provides strategies and practical recommendations for the development of smart tourism.*

Keywords: *smart tourism, Bukhara region, digital services, historical heritage, interactive services, IoT, AR/VR, mobile apps, tourist experience, sustainable tourism.*

Kirish.

Raqamli transformatsiya jarayonlari turizm sohasiga ham chuqur kirib kelib, “smart turizm” tushunchasini amaliyotga tobora faol tatbiq etmoqda. Smart turizm IoT sensorlari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, AR/VR, raqamli to’lovlar va multimodal harakatlanish xizmatlari (MaaS) kabi yechimlar orqali sayyoh tajribasini chuqurroq tahlil qilish, resurslardan samarali foydalanish va hududning boshqaruvini optimallashtirishga qaratilgan yangi boshqaruv-paradigmadir. Mazkur yondashuv infratuzilma yuklamalarini real vaqt rejimida boshqarish, oqimlarni muvozanatlash, xavfsizlikni kuchaytirish va barqarorlik ko’rsatkichlarini yaxshilash imkonini beradi.

Jahon turizm bozoridagi tiklanish va o’sish fonida smart yechimlarning ahamiyati yanada ortdi. 2025 yilning birinchi yarmida xalqaro turistlar soni o’tgan yilning shu davriga nisbatan 5 foizga oshib, pandemiyagacha bo’lgan 2019 yil darajasidan 4 foizga yuqori qayd etildi. Bu global sayohat talabining barqarorligini va raqamli innovatsiyalar uchun kuchli iqtisodiy zamin mavjudligini ko’rsatadi, ayniqsa tarixiy merosga boy hududlar uchun¹.

Buxoro viloyati O’zbekistonning eng yirik tarixiy-madaniy meros makonlaridan biri sifatida smart turizm konsepsiyasini joriy etish uchun qulay ekotizimga ega: qadimiy obidalar, ziyorat va madaniy yo’nalishlar, mavsumiy piklar, shuningdek, mehmondo’stlik xizmatlari bozorining tez rivojlanishi. Biroq turistik oqimlarning notekis taqsimlanishi, tig’iz soatlarda xizmat sifati pasayishi, axborotning parokandaligi va monetizatsiya zanjirida yo’qotishlar kabi muammolar mavjud. Smart infratuzilma va ma’lumotga asoslangan boshqaruv ushbu cheklovlarini yumshatish, tashrif buyuruvchilarning vaqt va joy bo’yicha taqsimotini optimallashtirish va tajriba sifatini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Smart yechimlar yordamida turistlar uchun qulaylik yaratish, xizmat sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyati paydo bo’ladi. Shu sababli, Buxoro viloyati misolida smart turizmni rivojlantirish tendensiyalarini o’rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Adabiyotlar sharhi.

So’nggi yillarda turizm sohasida raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, IoT va katta ma’lumotlar tahlilining keng qo’llanilishi “smart turizm” tushunchasini ilmiy tadqiqotlar markaziga olib chiqdi. Dunyo miqyosida ko’plab olimlar ushbu sohada chuqur ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Masalan, Ulrike Gretzel va Chulmo Koo smart turizmning konseptual asoslarini ishlab chiqqan bo’lsa, Dimitrios Buhalis smart shahar va mehmondo’stlikni birlashtiruvchi

¹ <https://www.untourism.int/news/international-tourism-up-5-in-first-half-of-2025-despite-global-challenges>

“smart hospitality” modelini taklif etgan. Youssef El Archi, Fatih Ercan, Rita Vaz, Wenjie Wu kabi tadqiqotchilar esa smart turizm manzillari, barqarorlik, foydalanuvchi tajribasi va texnologiyalar integratsiyasini tahlil qilganlar.

Bu tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, smart turizm nafaqat texnologik innovatsiya, balki turizmni boshqarish, resurslardan oqilona foydalanish va hududiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun ham muhim strategik yo'nalishdir.

Ulrike Gretzel va Chulmo Koo (2021) smart turizmni shahar-manzil darajasidagi ochiq ekotizim sifatida talqin qilib, an'anaviy turizmni “yopiq tizim”dan “ma'lumotga tayanadigan, o'zaro ulangan, manfaatdor tomonlar bilan birga boshqariladigan tizim”ga o'tishini asoslaydi. DMolar uchun “o'tkazuvchanli va ochiqlik”, ma'lumot boshqaruvi va hamkorlik markaziy shart ekani tadqiq etiladi.

Dimitrios Buhalis (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqot mehmondo'stlikda smart shahar va smart turizm tamoyillaridan “tezkor (agile) biznes ekotizimi”ga o'tishni ko'rsatadi: IoT/AI, real-vaqt ma'lumotlar va platformalar asosida xizmatlarni shaxsiylashtirish, qiymat-ham yaratish va tarmoq sinergiyalari mijoz tajribasi va daromadlarni oshirishini kabi tadqiqotlarni izohlaydi.

Youssef El Archining (2023) izlanishlari sistematik adabiyot tahlili (SLR) smart turizm manzillarini barqaror rivojlanish kontekstida xaritalab, uchlik (iqtisodiy-ijtimoiy-ekologik) maqsadlarni bog'lash, ma'lumot platformalari va manfaatdor tomonlar boshqaruvi bo'yicha aniq yo'nalishlar beradi. Amaliy indikatorlar va boshqaruv modellarida bo'shliqlarni ko'rsatadi.

Fatih Ercan (2023) 2013–2022 davrlarda smart turizm manzillari bo'yicha ilmiy ishlab chiqarishni tadqiq etib, yetakchi mamlakatlar, eng ko'p iqtibos olgan mualliflar, texnologiya (IoT/AI), barqarorlik va boshqaruv mavzularining markaziy “hotspot” ekanini ko'rsatadi.

Wenjie Wu (2024) o'zining tadqiqotlarida state-of-the-art sharhda AI, katta ma'lumotlar, AR/VR va IoTning turizmga “raqamli aqlilik”ka olib boruvchi chiziqlari jamlangan. Muallif real-vaqt ma'lumotlarga tayangan boshqaruv, shaxsiylashtirish va barqarorlik metrikalarini yagona ramkada birlashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Rita Vaz (2025) yilda 43 ta sifat tadqiqotini tematik tahlilini amalga oshirgan, smart turizm manzillari bo'yicha foydalanuvchi tajribasi, hamjamiyat ishtiroki va boshqaruv mexanizmlarini chuqur ochib beradi, shuningdek, sifat metodlari “qanday ishlaydi?” degan savolga amaliy javob berishda yetishmayotganini va bu yo'nalishni kengaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Yana bir olim, Yap (2025) smart turizm texnologiyalarining sayyoh qoniqishiga ta'sir qiluvchi olti guruh omilini (texnologik, ijtimoiy, psixologik, xulqiy, iqtisodiy, manzilga oid) ajratadi. Bu natijalar xizmat dizayni va investitsiya ustuvorliklarini aniqlashga yordam beradi.

Naveen Kumar (2025) smart turizmga TIAS (Texnologiya-Infratuzilma-Aktorlar-Strategiya) ko'rinishidagi boshqaruv mexanizmini taklif etib, mahalliy hukumatlar uchun amaliy strategiyalar, jamoat infratuzilmasi, raqamli targ'ibot, davlat-xususiy hamkorlik va kadrlar salohiyatini kuchaytirishni ajratadi.

Ushbu tadqiqotlar smart turizmni nafaqat texnologik innovatsiya sifatida, balki iqtisodiy barqarorlik, resurslarni samarali boshqarish, hamda madaniy merosni saqlash bilan uyg'un holda rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslab berdi. Mazkur natijalar O'zbekiston, xususan Buxoro viloyatida smart turizm konsepsiyasini shakllantirish va hududiy rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini kompleks tahlil yondashuvi tashkil etadi. Mavzuni chuqur o'rganish uchun iqtisodiy-statistik, komparativ va strategik tahlil uslublari uyg'un qo'llanadi. Mazkur yondashuv nafaqat mavjud holatni, balki istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini ham ilmiy asosda aniqlashga imkon beradi.

Avvalo, statistik tahlil usuli yordamida Buxoro viloyatining turizm sohasiga oid 2014–

2025 yillar oralig'idagi ma'lumotlar, jumladan, sayyohlar soni, tashrif maqsadlari, xorijiy turistlar ulushi, xizmatlar hajmi, bandlik va daromad ko'rsatkichlari o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida trend, korrelyatsiya va regressiya tahlillari amalga oshirilib, smart turizm infratuzilmasining rivojlanishi bilan turistlar oqimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi. Statistik natijalar yordamida smart texnologiyalar joriy etilgan hududlarda iqtisodiy samaradorlikning oshishi va barqarorlikning yaxshilanishi ilmiy asosda isbotlanadi.

Bundan tashqari, SWOT tahlili orqali Buxoro viloyatida smart turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va to'siqlari aniqlanadi. Mazkur tahlil orqali viloyatning ichki kuchli (Strengths) va zaif (Weaknesses) tomonlari, hamda tashqi imkoniyatlar (Opportunities) va xavf-xatarlar (Threats) baholanadi. Masalan, Buxoroning kuchli tomoni sifatida uning boy tarixiy-madaniy merosi va xalqaro tanilgan brendi ko'rsatilsa, zaif tomoni sifatida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi qayd etiladi. Shu bilan birga, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi turizmni modernizatsiya qilish uchun muhim imkoniyat sifatida qaraladi, mavsumiylik va global raqobat esa asosiy xavf omillari sifatida e'tirof etiladi.

Smart turizmni chuqurroq tahlil qilish uchun komparativ (taqqoslama) tahlil usulidan ham foydalaniladi. Bunda Buxoro viloyati tajribasi boshqa ilg'or smart turizm manzillari – Janubiy Koreya, Ispaniya, Singapur va Turkiya bilan taqqoslanadi. Ushbu yondashuv orqali har bir mamlakatda smart texnologiyalar qanday tarzda turizmga qo'llanayotgani, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modeli, hamda raqamli boshqaruv mexanizmlari o'rganiladi. Komparativ tahlil Buxoro uchun mos bo'lgan innovatsion strategik modelni ishlab chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, ushbu kompleks metodologik yondashuv smart turizm rivojlanish tendensiyalarini tizimli o'rganish, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda Buxoro viloyatida ularni amaliyotga tatbiq etish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global miqyosda "smart turizm" sohasida bir nechta asosiy tendensiyalar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Birinchidan, texnologiyalar, xususan Sun'iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT), AR/VR (kengaytirilgan/virtual haqiqat) turizm tajribasini shaxsiylashtirish, xizmat sifatini oshirish va axborot-boshqaruv funktsiyalarini takomillashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Masalan, global bozor tahlillari smart turizm bozorining 2024 yilgi taxminan USD 712,6 milliondan 2032 yilga kelib USD 2,258,6 millionga oshishi kutilayotganini ko'rsatmoqda². Ikkinchidan, yo'nalish jihatidan sayyohlarning tajribaga bo'lgan talabi tubdan o'zgarmoqda, ular oddiy "manzilga borish"dan ko'ra, mazmunli, mahalliy madaniyat bilan aloqa qiluvchi, ilgari kam tanilgan yoki kamgina yuklangan hududlarni tanlashga moyil bo'lmoqda. Uchinchidan, barqarorlik tamoyillari va sayyohlik oqimlari boshqaruvi ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ortiqcha yuklama (overtourism), resurs sarfi va ekologik izchil masalalar global sohada muammoga aylanib bormoqda.

O'zbekistonda, xususan, Buxoro viloyati jihatidan ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, 2025 yil bahorida mamlakatga kelgan xorijiy sayyohlar soni avvalgiga nisbatan 48 % ga yaqin oshgani - bu turizm sohasida smart infratuzilma, vizani soddalashtirish, xalqaro targ'ibotning kuchaytirilishi kabi omillar bilan izohlanmoqda. Shuningdek, 2024 yilda O'zbekistonda tashrif buyuruvchilar soni 10.2 millionga yetgan va turizm daromadi taxminan 3.5 milliard AQSh dollarini tashkil qildi³. Bu raqamlar, shubhasiz, Buxoro viloyati uchun ham qulay makon yaratmoqda. Shaharning tarixiy merosi, O'zbekistonda "sayohat qilish" dasturlari, infratuzilma yangilanishlari (masalan, temiryo'l aloqalari, mehmonxona va xizmat tarmoqlari) viloyatga kelayotgan turistlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. Buxoro yerida smart turizm g'oyalarini joriy etish shu kontekstda maqsadga muvofiqdir.

² <https://www.fortunebusinessinsights.com/smart-tourism-market-104810>

³ www.stat.uz

Global tendensiyalar va mahalliy rivojlanishlarni solishtiradigan bo'lsak, Buxoro viloyatida smart turizm tamoyillarining tatbiqi uchun qulay shart-sharoitlar shakllanmoqda.

Buxoro viloyati o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, qadimiy shahar zanjiri, va sayohat qobiliyatiga ega infratuzilmasi bilan ajralib turadi. Ushbu salohiyat smart turizm (raqamli, interaktiv va ma'lumotga tayanadigan turizm) kontekstida ham keng imkoniyatlar yaratadi. Birinchi navbatda, viloyatning markaziy qismida joylashgan qadimiy arxitektura obidalarini va UNESCO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan zonalarini sayyohlarni jalb qilish uchun kuchli brendga aylangan. Bu esa smart turizmni tatbiq etishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, turizm infratuzilmasi – mehmonxonalar, turar-joy obyektlari, tashrif buyuruvchilarning oqimlari va xizmat tarmoqlari ham sezilarli darajada rivojlangan. Bu esa raqamli yechimlarni qo'llash, masalan, mobil ilovalar orqali obidalarni va ekskursiyalarni interaktiv tarzda taqdim etish, virtual yoki kengaytirilgan haqiqat (AR/VR) yordamida tarixiy joylarni ko'rish, yoki real-vaqt sensör va GIS xaritalar orqali sayyoh oqimini boshqarish imkonini kengaytiradi.

Viloyat uchun smart turizmni rivojlantirishga quyidagi imkoniyatlar ayniqsa muhim: turizm oqimini diversifikatsiyalash, ya'ni faqat markaziy shahar bilan cheklanmasdan, tumarlarga, madaniy-hunarmandchilikga, gastronomik sayohatlarga va ekologik-faol sayohatlarga yo'naltirish, mahalliy xizmat tarmoqlari va hunarmandchilik mahsulotlarini raqamli platformalar orqali taklif etish va global auditoriyaga integratsiya qilish, hamda resurslardan oqilona foydalanish va sayyoh-joy muvozanatini ta'minlash uchun smart boshqaruv sistemalarini joriy etish.

Umuman olganda, Buxoro viloyati smart turizmga o'tish uchun tarixiy meros, infratuzilma va raqamli xizmatlar kabi barcha muhim shart-sharoitlarga ega. Boshqacha qilib aytganda, Buxoro nafaqat tarixiy hudud sifatida, balki "aqlli turist manzili"ga aylanishga tayyor turibdi.

1-jadval

2022-2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari⁴

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	yillar				
		2022	2023	2024	2025	2026
1.	Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi)	2,4	2,9	3,4	3,8	4,1
2.	Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi)	450,0	900,0	1,200	1,500	1 800
3.	Xizmatlar eksporti (mln AQSh doll)	121	200	230	270	300
4.	Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming)	5,399	6,131	6,721	7,336	7,976
5.	Mehmonxonalar nomer fondining bandlik darajasi	45,0	51,0	61,0	71,0	93,0
6.	Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming)	12,147	13,672	14,902	16,182	17,512
7.	Mehmonxonalar soni (dona)	178	198	218	238	258
8.	Oilaviy mehmon uylari soni (dona)	264	314	325	335	345
9.	Xostellar soni (dona)	55	61	66	71	76
10.	Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish	7	8	9	10	11

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta'minlash, shuningdek Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha

⁴ <https://lex.uz/docs/-6212874>

alohida dasturni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022 - 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (28.09.2022 yildagi 543-son) qabul qilingan bo'lib, unda viloyatda turizm infratuzilmasini, xususan SMART turizmni rivojlantirish uchun qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Bu ko'rsatkichlar 2022-2026 yillarga mo'ljallangan bo'lib, viloyatning turizm sektori o'sishi va rivojlanishi bo'yicha maqsadlarni aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlarni smart turizm bilan bog'lab tahlil qilamiz:

2022 yilda 2,4 million, 2026 yilda 4,1 million kishi tashrif buyurishi kutilmoqda.

Smart turizmni rivojlantirish orqali turistlarning tajribasini raqamli platformalar orqali shaxsiylashtirish, interaktiv xizmatlar va mobil ilovalar orqali yo'riqnoma va ma'lumotlar taqdim etish orqali sayyohlarning oqimi ortishi mumkin. Sayyohlarning sonining ortishi bilan, smart turizm texnologiyalari orqali xizmat ko'rsatish samaradorligi oshishi kutiladi.

Xorijiy turistlar soni 2022 yilda 450 mingdan, 2026 yilda 1,8 millionga yetishi kutilmoqda. Buxoro viloyatida xorijiy sayyohlar oqimi ortishi, shuningdek, bu sayyohlarni jalb qilishda smart texnologiyalar (masalan, mobil ilovalar, VR/AR tajribalari, IoT sensorlar orqali sayyohlarni jalb etish) orqali qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu raqamlarning ortishi raqamli infrastruktura va xavfsiz onlayn to'lov tizimlarini rivojlantirishni talab qiladi.

Xizmatlar eksporti 2022 yilda 300 mln dollardan, 2026 yilda 500 mln dollargacha oshishi kutilmoqda.

Smart turizmni rivojlantirish, raqamli turizm mahsulotlari, onlayn platformalar va raqamli marketing strategiyalarining joriy etilishi orqali eksportni oshirish mumkin. Bu, ayniqsa, madaniy va tarixiy merosga asoslangan turizmga, masalan, virtual muzeylar, onlayn ekskursiyalar va raqamli madaniy tajribalar orqali amalga oshirilishi mumkin.

2022 yilda mehmonxona soni 264 dona bo'lib, 2026 yilda 345 taga yetishi kutilmoqda. Bu o'sish, albatta, smart mehmonxona xizmatlarini talab qiladi, masalan, mobil ilovalar orqali onlayn ro'yxatdan o'tish, raqamli kalitlar, xonalar bo'yicha interaktiv tizimlar va shaxsiylashtirilgan xizmatlar. Buxoro mehmonxonalari uchun bu xizmatlar nafaqat sayyohlarning tajribasini yaxshilaydi, balki mehmonxona operatorlariga ham operatsion samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Smart turizmni rivojlantirish orqali xostellar xizmatlarini raqamli platformalar orqali optimallashtirish mumkin. Masalan, xostellarda sayyohlar uchun interaktiv xizmatlar va o'zaro aloqalarni mustahkamlash uchun raqamli tizimlar orqali xizmat ko'rsatish imkoniyatlari yaratilishi mumkin.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi smart turizm uchun asosiy omil hisoblanadi. 4G va 5G texnologiyalarining keng tarqalishi Buxoro viloyatida raqamli turizmni rivojlantirish imkonini beradi. Bu mobil ilovalar, virtual sayohatlar, real vaqtda sayohatlar monitoringi va IoT tizimlari orqali sayyohlarning harakatlarini kuzatish imkonini yaratadi.

Buxoro viloyatidagi turizm sohasini rivojlantirishda smart turizmni tatbiq etish orqali ko'plab ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Xususan, sayyohlar oqimini orttirish, raqamli xizmatlar va platformalar orqali sayyohlarning tajribasini shaxsiylashtirish, hamda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. 2026 yilga kelib, bu ko'rsatkichlar nafaqat o'sishga, balki raqamli infratuzilmaning rivojlanishi va smart texnologiyalarning keng qo'llanilishiga xizmat qiladi.

Buxoro viloyati, O'zbekistonning eng qadimiy va tarixiy jihatdan boy hududlaridan biri sifatida, turizm sohasida ulkan imkoniyatlarga ega. Bugungi kunda, global miqyosda smart turizm tendensiyalarining tez rivojlanishi bilan, viloyatning turistik salohiyatini yanada kengaytirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish katta ahamiyatga ega.

Smart turizm texnologiyalarni, masalan, mobil ilovalar, IoT, sun'iy intellekt, kengaytirilgan haqiqat (AR) va boshqa raqamli xizmatlarni sayohat tajribasini yaxshilash va sayyohlar uchun qulaylik yaratish maqsadida ishlatishdir. Buxoro viloyati uchun smart

turizmni rivojlantirishning muvaffaqiyati, uning kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari (SWOT tahlili) orqali aniqlanishi mumkin.

2-jadval

Buxoro viloyatida SMART turizmning SWOT tahlili

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
- Boy tarixiy va madaniy meros (UNESCO ro'yxatidagi obidalar).	- Raqamli infratuzilma hali to'liq rivojlanmagan.
- Mashhur turistik markazlar, xususan Buxoro shahridagi obidalar.	- Mahalliy biznes va xizmatlar sohasida raqamli tizimlarning yetishmasligi.
- Vaqt o'tishi bilan rivojlanayotgan mehmonxona tarmog'i.	- Sayyohlarning ko'proq talab qiladigan modern xizmatlarga (masalan, interaktiv xizmatlar) ehtiyoj hali to'liq qondirilmagan.
- O'zbekiston hukumati tomonidan turizmni qo'llab-quvvatlash dasturlari mavjud.	- Mahalliy aholi va biznesning raqamli texnologiyalarga adaptatsiyasi past.
- Jahon miqyosida turizmni rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlar (Raqamli O'zbekiston 2030).	- Mavsumiy va iqlimga bog'liq bo'lgan turizm sektori hali samarali boshqarilmagan.
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
- Xorijiy turistlar sonining o'sishi (2026 yilga kelib 1,8 million kishi).	- Raqobatdosh turizm markazlarining o'sishi (masalan, Buxoroga yaqin hududlar).
- Buxoro viloyati uchun smart turizm platformalarini yaratish imkoniyati.	- Ekologik tahdidlar va o'rta va yuqori turizm yuklamalari (overtourism).
- Kengaytirilgan haqiqat (AR/VR) orqali interaktiv turistik tajribalarni taklif qilish imkoniyati.	- O'zbekiston bo'yicha mavjud infratuzilma va texnologiya farqlari (qishloq joylarda raqamli xizmatlarning yetishmasligi).
- 4G va 5G texnologiyalarining kengayishi sayyohlar uchun mobil xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi.	- Global pandemiyalar yoki tabiiy ofatlar kabi tashqi omillar turizm sektoriga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Turizmni raqamlashtirish orqali xizmatlar sifatini yaxshilash va sayyohlar uchun raqamli platformalar yaratish.	- Mahalliy resurslar va infratuzilma salohiyatining cheklanishi (yangi texnologiyalarni joriy etish uchun ko'p investitsiyalar talab etiladi).

Buxoro viloyati uchun smart turizmni rivojlantirishda kuchli tomonlar va imkoniyatlar katta, ammo bu jarayonni amalga oshirishda zaif tomonlar va tahdidlarni ham inobatga olish zarur. Tarixiy obidalar, mehmonxona tarmog'ining o'sishi va hukumatning turizmni qo'llab-quvvatlash dasturlari viloyatning rivojlanishiga katta turtki bo'lishi mumkin. Biroq, raqamli infratuzilmaning yetishmasligi, mahalliy biznesning raqamli texnologiyalarni qabul qilishdagi past daraja va iqlimga bog'liq bo'lgan turizmning mavsumiyligi bilan bog'liq muammolarni hal qilish zarur.

Smart turizmni rivojlantirishda Buxoro viloyati uchun keng imkoniyatlar mavjud. Xususan, 4G va 5G texnologiyalarining rivojlanishi, kengaytirilgan haqiqat (AR/VR) yordamida interaktiv turistik xizmatlar yaratish, va raqamli to'lov tizimlarining joriy etilishi orqali sayyohlarning tajribasini yaxshilash mumkin. Biroq, viloyatda raqamli xizmatlarning yetishmasligi va raqobatdosh turizm markazlarining rivojlanishi xavf tug'dirishi mumkin. Shuningdek, mavjud infratuzilma va texnologiyalarga investitsiyalar kiritish zarurligi ham muhim omil hisoblanadi.

Smart turizmni rivojlantirish orqali Buxoro viloyatining turizm sektorini yanada diversifikatsiya qilish va sayyohlar oqimini boshqarish imkoniyati mavjud. Bu bilan nafaqat sayyohlarning tajribasi yaxshilanadi, balki viloyatning iqtisodiy barqarorligini oshirishga ham yordam beradi.

Smart turizmni rivojlantirish borasida ko'plab mamlakatlar ilg'or tajribalarini namoyon etmoqda.

Janubiy Koreya o'zining "Smart City" tashabbuslari orqali turizmni raqamlashtirishda katta yutuqlarga erishdi. Masalan, Seul shahrida sayyohlar uchun mobil ilovalar yordamida raqamli yo'riqnomalar, interaktiv ko'rgazmalar va VR (Virtual Reality) orqali tarixiy joylarni ko'rish imkoniyatlari yaratilgan. Sayyohlar real vaqt rejimida transport va boshqa xizmatlarga kirish imkoniga ega. Janubiy Koreya shuningdek, IoT va AI texnologiyalari orqali turizm infratuzilmasini optimallashtiradi.

Barcelona shahrida "smart tourism" tamoyillari joriy etilgan. Sayyohlar uchun interaktiv kartalar, mobil ilovalar orqali sayohatni rejalashtirish, real-vaqtda turistik obidalar haqida ma'lumot olish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, Ispaniya hukumatining "sustainable tourism"ga e'tibor qaratilishi ham barqaror turizmning rivojlanishiga yordam bermoqda. Barcelona shahrida, shuningdek, IoT texnologiyalari orqali turistlar oqimlari va xizmatlar monitoringi amalga oshirilmoqda.

Singapur o'zining "Smart Nation" tashabbusi orqali barcha sohalarida, jumladan turizm raqamli texnologiyalarni keng qo'llagan. Singapurda turistlar uchun "mobile-first" yondashuvi qo'llanilib, sayohatlar mobil ilovalar orqali rejalashtiriladi. Shuningdek, shahar atrofidagi turistik hududlar uchun interaktiv VR tizimlari va IoT yordamida sayyohlarning joylashuvi va harakatlarini kuzatish mumkin.

3-jadval

Mamlakatlarda SMART turizmdan foydalanish imkoniyatlari

Ko'rsatkichlar	Janubiy Koreya	Ispaniya (Barcelona)	Singapur	Turkiya (Antaliya)	O'zbekiston (Buxoro)
Smart turizm texnologiyalari	IoT, AI, VR, mobil ilovalar, interaktiv kartalar	IoT, AI, VR, mobil ilovalar, interaktiv ko'rgazmalar	IoT, mobil ilovalar, VR, raqamli to'lov tizimlari	QR-kodlar, IoT, mobil ilovalar, interaktiv kartalar	Mobil ilovalar, VR, IoT, raqamli xizmatlar
Sayyohlar tajribasini shaxsiylashtirish	Yangi texnologiyalar orqali shaxsiylashtirilgan xizmatlar	Interaktiv ilovalar orqali shaxsiylashtirilgan xizmatlar	Mobil ilovalar orqali sayohatni rejalashtirish	Mobil ilovalar orqali shaxsiylashtirilgan xizmatlar	Tarixiy obidalar va interaktiv sayohatlar
Raqamli infratuzilma	Smart City infrastrukturasini real-vaqt monitoringi	IoT va AI texnologiyalari orqali xizmat monitoringi	Raqamli xizmatlar va real-vaqt ma'lumotlar	IoT orqali turistlar oqimi monitoringi	Raqamli xizmatlar, IoT va AR/VR imkoniyatlari
Barqaror turizm rivojlantirish	Sustainable tourism texnologiyalari qo'llaniladi	Ekologik barqarorlikka e'tibor beriladi	Barqaror turizmni rivojlantirishga e'tibor beriladi	Ekologik turizmni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar	Barqaror turizmga yo'naltirilgan strategiyalar
Turizm xizmatlarining raqamlashtirilishi	Ha, to'liq raqamlashtirilgan xizmatlar	Ha, interaktiv va raqamli xizmatlar	Ha, mobil ilovalar va raqamli tizimlar orqali xizmatlar	Ha, interaktiv xizmatlar va raqamli platformalar	Hozirgi kunda rivojlanayotgan raqamli xizmatlar
O'zbekiston bilan taqqoslash	Yuqori raqamli infratuzilma va texnologiyalar	Yuksak darajadagi interaktiv xizmatlar	Raqamli xizmatlar va IoT orqali shaxsiylashtirilgan xizmatlar	Raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi va interaktiv xizmatlar	Smart turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar mavjud

Turkiya, ayniqsa, Antaliya shahrida smart turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu erda smart turizm texnologiyalari, jumladan, mobil ilovalar, QR-kodlar va interaktiv kartalar orqali sayyohlar uchun shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etiladi. Antaliyadagi mehmonxonalarda IoT va raqamli to'lov tizimlari orqali sayyohlarning qolish tajribasi yaxshilanmoqda.

Bu tajribalar Buxoro viloyatida smart turizmni rivojlantirish uchun foydali bo'lishi mumkin. Xususan, sayyohlar uchun interaktiv xizmatlar, mobil ilovalar va raqamli boshqaruv tizimlari yordamida turistlar tajribasini shaxsiylashtirish va xizmat sifatini oshirish imkoniyatlari mavjud. Xorijiy tajribalar shuningdek, mahalliy biznes va davlat hamkorligini rivojlantirish orqali smart turizmni yanada samarali joriy etish imkonini beradi.

Jadvalda keltirilgan mamlakatlar yuqori darajadagi raqamli infratuzilma, interaktiv xizmatlar va real-vaqt monitoringini qo'llashda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etmoqda. O'zbekistonda, ayniqsa Buxoro viloyatida, smart turizm imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, hali to'liq joriy etilmagan. Shuning uchun Buxoro viloyatida smart turizmni rivojlantirish uchun yuqoridagi tajribalardan o'rnak olish, texnologiyalarni qo'llash va sayyohlar tajribasini shaxsiylashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish zarur.

Xulosa va takliflar.

Buxoro viloyati O'zbekistonning eng boy tarixiy-madaniy merosga ega hududlaridan biri sifatida, smart turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Tarixiy obidalar, boy madaniy meros va xalqaro turizmni rivojlantirishga qaratilgan hukumat tashabbuslari viloyatning raqamli turizmni rivojlantirish salohiyatini yanada oshiradi. Biroq, smart turizmni to'liq amalga oshirish uchun raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, turizm xizmatlarining modernizatsiyasi va mahalliy bizneslarning raqamli texnologiyalarga moslashishi zarur.

Jahon miqyosidagi smart turizm tajribalari, xususan Janubiy Koreya, Ispaniya, Singapur va Turkiya kabi mamlakatlarning ilg'or yondashuvlari Buxoro viloyatida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan smart turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi. Masalan, mobil ilovalar, VR/AR texnologiyalari, IoT va raqamli to'lov tizimlari orqali sayyohlar tajribasini shaxsiylashtirish, sayyoh oqimlarini real-vaqtda boshqarish va xizmatlarning samaradorligini oshirish mumkin. Buxoro viloyatining geografik va madaniy imkoniyatlari esa, turistlarni jalb qilish uchun raqamli innovatsion yechimlarni joriy etish uchun mukammal asos yaratadi.

Fikrimizcha, hududlarda, xususan Buxoro viloyatida SMART turizmni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Buxoro viloyatida smart turizmni rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, raqamli infratuzilmani mustahkamlash zarur. Mobil ilovalar, interaktiv xizmatlar, virtual haqiqat va IoT texnologiyalarini joriy etish, sayyohlarning tajribasini yaxshilash va ularning oqimlarini boshqarish imkonini beradi. Mahalliy xizmatlar va mehmonxonalar uchun raqamli platformalarni yaratish, sayyohlar uchun qulay va zamonaviy xizmatlar taqdim etishni ta'minlaydi.

2. Mahalliy biznes va xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar uchun raqamli texnologiyalarni o'rganish va ulardan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etish zarur. Bu, o'z navbatida, sayyohlar uchun yuqori sifatli va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi. Xususan, mehmonxonalar, gidlar va turistik xizmatlar uchun onlayn tizimlar yaratish kerak.

3. Smart turizmni rivojlantirish jarayonida ekologik barqarorlikka e'tibor qaratish zarur. Buxoro viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish uchun barqaror boshqaruv tizimlarini joriy etish, energiya tejash texnologiyalarini qo'llash, hamda sayyohlar oqimini muvozanatlashga qaratilgan smart tizimlar yaratish muhimdir.

4. Buxoro viloyatining tarixiy va madaniy boyliklarini zamonaviy texnologiyalar yordamida taqdim etish, masalan, VR/AR yordamida tarixiy joylarni interaktiv tarzda ko'rish,

sayyohlar uchun yangi va innovatsion tajribalar yaratish mumkin. Bu turistlarning sayohatga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning Buxoroda uzoqroq qolishiga yordam beradi.

5. O'zbekistonning turizm sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, global turizm platformalarida Buxoro viloyatini targ'ib qilish, marketing va reklama faoliyatini rivojlantirish kerak. Bu orqali xorijiy turistlar sonini oshirish va Buxoro viloyatining dunyo miqyosida tanilishini ta'minlash mumkin.

Buxoro viloyati uchun smart turizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Smart texnologiyalar va raqamli xizmatlar orqali viloyatning turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Biroq, bu jarayonni amalga oshirish uchun davlat, biznes va mahalliy jamoatchilikning hamkorligi zarur. Raqamli infratuzilma, texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko'rsatish sektorini modernizatsiya qilish va turizmni barqaror rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar Buxoro viloyatini global turizm xaritasida yetakchi markazlardan biriga aylantirishi mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Buhalis, D., O'Connor, P., & Leung, R. (2023). *Smart hospitality: From smart cities and smart tourism towards agile business ecosystems in networked destinations*. *International Journal of Contemporary Hospitality Management*, 35. <https://doi.org/10.1108/IJCHM-04-2022-0497>.

El Archi, Y., Benbba, B., Nizamaddinova, Z., Issakov, Y., Vargáné, G. I., & Dávid, L. D. (2023). *Systematic literature review analysing smart tourism destinations in context of sustainable development: Current applications and future directions*. *Sustainability*, 15(6), 5086. <https://doi.org/10.3390/su15065086>.

Ercan, F. (2023). *Smart tourism destination: A bibliometric review*. *European Journal of Tourism Research*, 34, 2818. <https://ejtr.vumk.eu/index.php/about/article/download/2788/597>.

Gretzel, U., & Koo, C. (2021). *Smart tourism cities: Towards openness and permeable tourism systems*. Konkuk University Smart Tourism Center Working Paper (overview PDF). <https://smarttourism.khu.ac.kr/file/202103/1622686872.pdf>.

Naveen Kumar, R., et al. (2025). *The role of TIAS in shaping smart tourism: Governance strategies for smart destinations*. *Built Environment Project and Asset Management*. <https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/BAJ-02-2024-0009/full/html>.

Vaz, R. (2025). *Smart tourism destination advances through qualitative research: A systematic review and thematic analysis*. *Discover Sustainability*. <https://doi.org/10.1007/s43621-025-01590-2>.

Wu, W., Li, J., & Zhang, X. (2024). *Digital tourism and smart development: State-of-the-art review and future directions*. *Sustainability*, 16(23), 10382. <https://doi.org/10.3390/su162310382>.

Yap, Y. Y., et al. (2025). *Smart tourism technologies and tourist satisfaction: A systematic review*. *Acta Psychologica*. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0001691825005049>.